

## **BUGUNGI KUNDAGI XOR IJROCHILIGIDAGI AYRIM KAMCHILIKLAR VA YUTUQLAR**

**Boymo'minov Xayriddin Musulmonqul o'g'li.**

“Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi musiqa  
nazariyasi va xor dirijyorlik kafedrasи xor o'qituvchisi ”

[boymuminovxayriddin1992@gmail.ru](mailto:boymuminovxayriddin1992@gmail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada yurtimizda xor san'atining bugungi kundagi muammolari va keng targ'ib etish chora tadbirlari xaqida fikr mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** xor jamoasi, san'at va madaniyat, iste'dod, integrativ, innovatsion. rlik xor jamoalarining faoliyati natijalari shularga bevosita bog'liqdir.

### **ANNOTATION**

This article will focus on the problems of choral art in our country today and the measures of wide promotion.

**Keywords:** choral community, art and culture, talent, integrative, innovative. The results of the activities of rlik choral communities are directly related to these.

Musiqa jamiyat ma'naviy taraqqiyotida san'atning boshqa turlariga nisbatan global ta'sir etish xususiyatiga ega. Buni O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov: “**Musiqa sadolari qaysi xalq yoki qaysi millat vakili tomonidan ijro etilmasin ,eng ezgu ,yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi... Eng muhim ,bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodlarning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda”** , degan fikrni bildirgan edilar.

(Karimov.I.A”Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch”.T.”Ma’naviyat” 2008-yil.)<sup>1</sup>

Ma’lumki o‘zbek xalqining ma’naviy go‘zalligi asrlar qaridan kelayotgan kuy – ohanglarida o‘zining ajoyib betakror badiiy inikosini topgan. Ulamolarimiz bergen ta’riflardan biriga ko‘ra “**Musiqa inson ruhining ozig‘idir**”. Binobarin milliy musiqa ko‘p asrlar davomida ajdodlarimiz boy ma’naviyatining teran tafakkurining, ruhiyatining sadolaridagi jonli ifodasi va ayni paytda yangi buyuk davlat bunyodkori bo‘lmish, jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig‘idir. Xor san’atining istiqboli, uning tarixi va bugungi kundagi holati borasida ob’ektiv ma’lumotlarga tayanishi haqiqat. O‘zbekiston san’at arbobi, qolaversa, turli millat bolalari sevuvchi inson, professor ustoz Shermat Yormatov xor jamoani tashkil etishni o‘rta maktab o‘quvchilaridan tuzish kerak, deb ta’kidlab o‘tganlar. Ammo o‘rta maktab xor jamoalari ko‘pincha tasodifiy ravishta tuziladi, ular bolalar badiiy havaskorligi ko‘rik tanlovlari o‘tkazishdan birmuncha oldin ba’zan bir-ikki oy avval paydo bo‘lib, tanlovlari o‘tkazilgandan keyin darhol tarqalib ketishadi. Ming afsuslar bo‘lsinkim, bu xaqqiqat. O‘z faoliyatini ko‘rsatish maqsadida maktab ichida tashkil etilgan to‘garaklardagi bolalarning musiqa qobiliyati va xorda qo‘shiq aytish xohishi bor yoki yo‘qligiga qaramasdan, xor qatnashchilari sonini ko‘paytirish payiga tushib qolishdek noto‘g‘ri intilish ham ko‘zga tashlanadi, yoki to‘garaklar o‘rta maktablarda amalda emas, faqatgina hujjatlarda o‘z faoliyatini olib borilayotganligi. Afsus, bunday maktablar jamiyatimizda kam emas.

Maktab xor jamoasining muvaffaqiyatli ishlashi uchun birinchi, eng muhim ob’ektiv shart: Xorning muayyan maqsadni ko‘zlab muntazam va rejali ravishda ishlashidir. Yaxshi xor jamoa maktabning xusni, sharafi va iftixoridir. Bunday jamoa vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat, barkamol avlodni ma’naviy

<sup>1</sup> O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar”16-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiali.Toshkent 2020-yil

onglilik ruhida tarbiyalash ishiga ularni xar tomonlama ma’naviy kamol toptira borish ishiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi vositasidir.

Musiqa sohasida davr tanlamas muammolardan biri bolaning qiziqishi, xohshiga va iste’dodiga qaramay, majburan musiqa to‘garaklariga va musiqa maktablariga olib borish hodisalarining guvohi bo‘lamiz. “Har bir shaxs iste’dodlidir. Ammo u iste’dodni yuzaga chiqara bilmoq zarurdir” deb fikr yuritgan nemis olimi Gyote. Maktab bolalar xor jamoalarining turli tiplariga bolalarni tanlash umumiy yagona prinsip asosida o‘tkazilmog‘i shart. Xor rahbari tomonidan jamoani tuzish jarayonida anketalarga bolalarning musiqa va ovoz qobiliyatiga oid ma’lumot yozib qo‘yilishi lozim.

Bugungi kunda xor san’atiga e’tibor biroz sustlashdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Xor san’atining rivoji uchun dastlab zangori ekran orqali har uch oyda viloyatlardagi musiqa va san’at maktablaridagi xor jamoalarni televideniyaga taklif qilib, ushbu ko‘rsatuvlarga: “San’at g‘unchalari yoki “Do-mi-sol, qo‘shig‘im,jon qo‘shig‘im” ko‘rsatuvlariga chiqorish lozim. Shu asnoda yuqorida aytib o‘tilgan ko‘rsatuvlar sonini ko‘paytirish zarur! Shundagina maktablardagi xor tiklanadi. Bolalar ruhiyati ko‘tariladi, xor rahbari yanada mas’uliyatli bo‘ladi”.

Hozirgi xor musiqa ijrosidagi dolzarb muammolardan yana biri bolalar uchun asar yozadigan bolalar kompazitorlari kamayib ketganligi sababli, bolalar asarlari kam bastalanmoqda iloji boricha madaniyat va turizm vazirligi bilan hamkorlikda bolalar kompazitorlari o‘rtasida ko‘proq konkurs (bellashuv)lar ilmiy va amaliy anjumanlar o‘tkazish lozim. Darhaqiqat o‘zimizning surxon voxamizda yashab ijod qilayotgan o‘zimizning milliyligimizni baralla ijodlarida bong urdirayotgan bastakorlarimizdan: M.Naimov ,B.Jilkiboyevni misol keltirishimiz mumkin M.Naimov Surxon folklyor xalq og‘zaki ijodidagi qo‘shiqlarni bolalar va katta xor jamoalari uchun xorga moslashtirib notalashtirgan xolda,milliyligimizni o‘sib kelayotgan yosh avlodlarga ajdodlarimiz turmush tarzini o‘z asarlarida targ‘ib etib kelishmoqda.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. *Karimov.I.A "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch". T. "Ma'naviyat" 2008-yil.*
2. *O'zb.Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart sanasidagi ma'ruzasidan.*
3. *Sh.Ro'ziyev "Xorshunoslik". Toshkent 1987-yil*
4. *O'zbek musiqa tarixi 1,2 tom .Toshkent 1973-yil*
5. *"O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" 16-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiali.Toshkent 2020-yil*
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)